



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BADIIY-ESTETIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISH TALQINI VA TADQIQI

G'aniyeva Shodiya A'zizovna
Farg'ona davlat universiteti, dotsent (DSc)
Anvarova Shohsanam A'zamjon qizi
Upgrade LC, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirishga hissa qo'shgan chet el va o'zbek olimlari hamda ularning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiylik, estetik tafakkur va pedagogik yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi yoritilib, bu jarayonda psixologik metodlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, badiiylik, pedagogik yondashuv, badiiy fikrlash, estetik salohiyat, psixologik metod.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ИССЛЕДОВАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

Ганиева Шодия Азизовна
Ферганский государственный университет, доцент (DSc)
Анварова Шохсанам Азамжон кизи
Upgrade LC, преподаватель

Аннотация

В статье рассматриваются исследования зарубежных и узбекских ученых, внесших вклад в развитие художественно-эстетических способностей учащихся начальных классов. Анализируется взаимосвязь художественности, эстетического мышления и педагогических подходов, а также раскрывается роль психологических методов в данном процессе.

Ключевые слова: интегративный подход, художественность, педагогический подход, художественное мышление, эстетический потенциал, психологический метод.

INTERPRETATION AND RESEARCH OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC ABILITIES

G'aniyeva Shodiya Azizovna
Fergana State University, Associate Professor (DSc)
Anvarova Shohsanam Azamjon qizi
Upgrade LC, Lecturer

Abstract

This article discusses the studies of foreign and Uzbek scholars who have contributed to the development of artistic and aesthetic abilities in primary school students. It analyzes the interrelation between artistic expression, aesthetic thinking, and pedagogical approaches, as well as highlights the importance of psychological methods in this process.

Keywords: integrative approach, artistic expression, pedagogical approach, artistic thinking, aesthetic potential, psychological method.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy, tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy

merosini o'rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Antropologlarning ta'kidlashicha, go'zallik va totuvlikka ehtiyoj odamlarga xosdir. Ushbu komponentsiz dunyoning yaxlit rasmini, shuningdek, shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin emas. Qadim zamonlardan beri donishmandlar bolalarni mehr va go'zallik muhitida tarbiyalashni ta'kidlab kelishadi. Yigitlar uchun go'zallik va jismoniy rivojlanishni idrok etish ustuvor, yoshlar uchun - turli xil san'at turlarini o'rganish va ulardan zavqlanish sifatida qabul qilindi va bu borada davlatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "...Yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish hamda tilimizning boyligini unga hurmat va muhabbatimizni tilimiz va madaniyatimizni dunyoga tarannum etish bilan ko'rsatishimiz kerak[1],-deya ta'kidlab o'tganlar. Hozirgi kunda jamiyatimizda badiiy-estetik tarbiyani yoshlar orasida rivojlantirishning ko'lami tobora kengaymoqda. Bundan maqsad esa yoshlar o'rtasida tolerantlik, badiiylilik va estetik tarbiya uyg'unligini ularning ongiga singdira olish, atrof muhit hamda undagi har bir voqea va hodisaga munosabat bildirga olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shunga ko'ra, badiiy-estetik qobiliyat o'z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo'ygan. Bular:

- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

- jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;

- o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib, jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlariga uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir.

Asosiy qism: Estetik tarbiya-o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong va munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya – bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy rivojlangan faol shaxsning shakllangan jarayoni. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafasat qonunlari asosida qayta yaratishga moyil bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan tarbiya sohasidir. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi: o'quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik g'oyalarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Xususan, Abu Nasr Farobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida san'at va estetika insonni ma'naviy barkamollikka yetaklashi va musiqa hamda go'zallikning ahamiyati haqida aytib o'tgan[2].

Badiiy-estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga-san'at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, badiiy asarlar, sport kabi sohalarni kiritish mumkin. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. O'zbek bolalar adabiyoti jahon bolalar adabiyotining ilgor an'analari ta'sirida rivojlandi. Jahon bolalar adabiyotining nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan "Gulliverning sayohatlari" (J. Swift), "Robinson Kruzo" (D. Defo), "Tom tog'aning kulbasi" (Bicher Stou), "So'na" (E. Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o'zbek bolalarning ham mulki bo'lib qoldi. Sharq adabiyoti eng yaxshi namunalarini arab, fors tilidan tarjima qilish bolalar adabiyoti tarjimachiligidagi bir yo'nalish bo'lsa, G'arb adabiyoti, xususan, rus adabiyoti namunalarini o'zbekchallashtirish ikkinchi yo'nalishni tashkil etdi. I. A. Krilov masallari, A. S. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak" asari, K. D. Ushinskiy hamda L.N. Tolstoyning bir qancha hikoya, ertaklari va boshqa ayni shu davrda tarjima qilinib, yangi usuldagi maktablar alifbo va o'qish kitoblariga

kiritildi. Ijodkorlar tarjima vositasida realistlik bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yanada mukammal egalladilar, bolalar uchun yozuvchi adiblar guruhi shakllandi. Bundan tashqari, o'quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish masalasi nafaqat mahalliy pedagoglar, balki umumjahon pedagog va psixologiya olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Misol sifatida jahon adabiyoti vakillaridan biri Konstantin Ushinskiy o'zining "Inson tarbiya predmeti sifatida" estetik tarbiya o'quvchilarda tabiat va san'atdagi go'zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik jarayon ekanligini ta'kidlab o'tgan [3]. Bu tadqiqotchilar pedagogik jarayonda badiiy ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, o'quvchilarda his, tasavvur va estetik didni shakllantirish omillarini tahlil qilganlar. Bu olimlar boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ijodiy va estetik rivojlanishni o'rganishda xalqaro miqyosda nazariy g'oyalarni ilgari surganlar. Xususan, Elliot Eisner-san'at ta'limi va badiiy fikrlashni maktab ta'limiga integratsiyalash bo'yicha nufuzli tadqiqotchi, uning ishlari san'atning ijodiy rivojlanishga ta'siri va pedagogik yondashuvlarni yoritadi[4]. Bundan tashqari, Viktor Lowenfeld-bolalar san'at va ijodiy rivojlanish bosqichlarini tizimlashtirgan art-ta'lim olimi; u san'atning rivojlanish jarayonidagi o'rnini, bolalar tasviriy san'at orqali o'zini ifodalashi, estetik idrok va didning shakllanishi, ijodiy jarayonning psixologik asoslari va san'at ta'limining tarbiyaviy ahamiyati haqida ta'kidlagan bo'lsa[5], Jean Piaget-balrog'atgacha bo'lgan yoshdagi bolaning idrok va tasavvur rivojlanishi nazariyasi bilan mashhur bo'lib, bu asarda olim tafakkur bosqichlarining nazariyasi, ijodiy va estetik faoliyatning tushuntirilishi hamda bolaning tasviriy faoliyati va reallikni ifodalash haqidagi fikrlari pedagogik yondashuvlarni shakllantirishda ilhom manbai bo'lgan[6]. Qo'shimcha sifatida esa, John Dewey, Bennet Reimmer, Herbert Read, Vasly Suxumlnsky kabi jahon olimlari badiiy va estetik qobiliyat orqali go'zallikni idrok qilish, estetik his-tuyg'ularni shakllantirish kabi ilmiy qarashlari bilan pedagogika olamiga munosib hissa qo'shganlar[7]. Bu olimlar bolalar rivojlanishi, ijodiy fikrlash va estetik tajribaning pedagogik ahamiyatini ilmiy asosda tushuntirganlar, bu esa boshlang'ich sinf pedagoglariga metodik ko'rsatmalar beradi. Asosan, Vasly Sxumlnsky o'zining "Bolalarga qalbimni beraman" kitobida bolalarda tabiat va san'at go'zalligini his qilish, uni qadrlash va yaratishga o'rgatish jarayoni deya ta'kidlab o'tagan[8]. Hozirgi kunga kelib esa, O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik va badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha ishlar, asosan, pedagogika yo'nalishidagi o'qituvchilar, magistrlar va doktorantlar tomonidan olib borilmoqda. Xususan, Namangan davlat universiteti doktoranti G.S.Qahhorova boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-estetik qobiliyatlarini xalq og'zaki ijodi orqali rivojlantirishni tadqiq qilgan bo'lsa, Yusupov, A.Sher E, A.Avloniy, M.Quronovlar esa, badiiy ta'lim va estetik idrokning pedagogik ahamiyati, san'at orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va estetik qobiliyatlarni shakllantirish va ularda ijodiy salohiyatni pedagogik aspektlarini tahlil qilganlar. Eshmamat Yusupov o'zining "Estetika" asarida estetika go'zallikni idrok qilish, san'atni tushunish va insonni estetik didini shakllantirish bilan bog'liq fan sifatida izohlagan[9]. Muhammadjon Quronov bo'lsa, "Pedagogika" asarida tarbiya o'quvchilarda go'zallikni idrok etish, san'atni tushunish va estetik didni rivojlantirish jarayoni ekanligini uqtirgan[10]. Shu bilan bir qatorda, Safo Ochilov, Mahmud Ochilov[11] kabi ilm egalari ham badiiy estetikaning nazariy asoslari va o'quvchilarning badiiy va estetik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish masalasi bo'yicha ishlar O'zbekiston pedagoglari tomonidan amaliy pedagogik tadqiqotlar bilan olib borilmoqda, xalqaro ta'lim olimlari esa ijodiy fikrlash, san'at ta'limi va estetika metodikasini nazariy jihatdan boyitganlar. Ushbu jarayonda esa psixologlar, bolaning umumiy rivojlanishi nuqtai nazaridan estetik tajribani asoslashga hissa qo'shganlar. Umuman olganda, bu soha pedagogika, psixologiya va san'at ta'limini uyg'unlashtirilgan integrativ yondashuvni talab qiladi. Shunday qilib, shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati doimo tan olingan va bu borada chet el hamda o'zbek pedagog olimlari tomonidan ilmiy ishlar tadbiq qilinmoqda. Ular ishlab chiqqan ilmiy izlanishlar esa yosh

pedagog o'qituvchilar uchun qo'llanma vazifasini bajarmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, badiiy adabiyot vositasida bolalarda tolerantlik, badiiylik, estetik tarbiya xususiyatlarini shakllantirish – bu zamonaviy dunyoda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, insonparvarlik, vatanparvarlik, bag'rikenglik kabi tuyg'ularni o'zida mujassam etgan komil insonni tarbiyalashning muhim shartidir. Bu jarayonda ota-onalar, o'qituvchilar, adiblar va barcha jamiyat a'zolari faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir. Badiiy adabiyot bolalarda tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlash mumkin. Badiiy asarlar bolalarga turli millat, din vama'daniyat vakillari haqida ma'lumot berish, ularning qadriyatlarini, an'analari va turmush tarzini tushunish imkonini yaratish orqali bag'rikenglik, o'zaro hurmat va empatiya kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Bolalarni tolerantlik ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim shartidir. Bag'rikeng, o'zaro hurmatga asoslangan shaxslarni tarbiyalash esa davlatimiz va jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu murakkab va mas'uliyatli vazifani hal etishda badiiy adabiyot kuchli ta'sir vositasi sifatida alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. A.N.Farobiy, "Baxt-saodatga erishuv haqida". "Fan" nashriyoti/ 1975. Toshkent. [30-35b]
3. K.Ushinskiy-Inson tarbiya predmeti sifatida. Sank-Peterburg/1868-1869, [45-50b]
4. E.Eisner. "The Arts and Creation of Mind, 2002. Yale University Press.
5. Viktor Lowenfeld "Creative and Mental Growth", 1947, The New York City-The Macmillian Company.
6. Jean Piaget "The Psychology and Intelligence" 1947, Paris-France.
7. J.Dewey-Art as experience, 1934-yil/Minton, Balch&company\New York.[35-45b]
8. B.Reimmer-A Philosophy of MUSIC Education.1970-yil/Prentice-Hall.New Jersey.[40-45b]
9. H.Read-Education Through Art.1943-yil/Faber&Faber, London.[7-15b]
10. V.Sxumlinskiy-Bolalarga qalbimni beraman.1969-yil/ Moskva-Politizant. [70-80b]
11. E.Yusupov-Estetika.Toshkent/"O'qituvchi".1992-yil.[120-130b]
12. M.Quronov -Pedagogika/Toshkent/O'qituvchi. 2010-yil.[190-200b].
13. M.Ochilov, S.Ochilov" Pedagogika"1997-2000-yil.Toshkent-O'qituvchi.[210-215b]
14. w.w.w.ziyo.uz
15. w.w.w.pedagog.uz